

16-01/18  
19.12.2024 y.

“TASDIQLAYMAN”

Viloyat hokimi v.b.

  
A. Boboyev  
2024-yil \_\_\_\_ -dekabr

Viloyat hokimligida o'tkazilgan apparat yig'ilishi  
BAYONI

2024-yil 17-dekabr

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi: A.Boboyev – viloyat hokimi v.b.

Ishtirok etganlar: Viloyat hokimining o'rinnbosarlari, guruh rahbarlari, kotibiyat mudirlari, boshqarma va tashkilotlar rahbarlari, shahar va tumanlar hokimliklari mas'ul xodimlari hamda tegishli korxona va tashkilotlar rahbarlari (*ro'yxat bo'yicha*).

KUN TARTIBI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-martdagи “Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va asrash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 119/32-son qarori ijrosi to'g'risida.

2. Kadastr agentligi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasining viloyat boshqarmasi va hududiy bo'limlarida ijro intizomini kompleks o'rganish natijalari to'g'risida

3. Boshqa masalalar.

1-masala

(Boboyev, Qobilov, Qilichev, shahar va tuman hokimlari, Boboyev)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan yig'ilish qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan 2019-yil 30-martda tasdiqlangan “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha jamoatchi inspektorlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida Nizom”ga asosan fuqarolar

yig‘inlari kengashining qarori bilan biriktirilishi lozim bo‘lgan jamoatchi inspektorlar biriktirmaganligi sababli fuqarolar tomonidan arxeologiya va madaniy meros obyektlariga jiddiy zarar yetayotganligi viloyat Madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i Sh.Qilichevga hamda shahar va tuman hokimlariga ko‘rsatib o‘tilsin.

**2. Viloyat Madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i (Sh.Qilichev), Samarqand Arxeologiya instituti direktori (M.Saidov):**

tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda 6 oy muddatda tumanlardagi madaniy meros obyektlarini holatini to‘liq xatlovdan o‘tkazib, har bir madaniy meros obyektlariga jamoatchi inspektorlar biriktirish choralari ko‘rilishini;

Mahallar uyushmasi viloyat boshqarmasi (Sh.Yuldashev) bilan birgalikda madaniy meros va arxeologiya obyektlarini mahallalar kesimida yangi ro‘yxatini shakllantirib, mahallalarda aholi orasida madaniy meros va arxeologik obyektlariga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirilishini ta’minlasin.

**3. Samarqand Arxeologiya instituti direktori (M.Saidov) 2025-yil yakuniga qadar:**

Samarqand tumani hokimi (S.Usmonov) bilan birgalikda Samarqand tumanidagi Kofirqal’a tepaligida “Arxeologiya parki”ni qonun hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda tashkil etilishini;

har bir shahar va tumaning arxeologik xaritasini tuzib, viloyat va tuman (shahar) hokimliklariga taqdim etilishini ta’minlasin.

## 2-masala

---

(Boboyev, Abilov, Rahmatullayev, Mamatkulov, Quvondiqov, shahar va tuman hokimlari, Boboyev)

**4. Viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (B.Rahmatullayev), viloyat hokimligi ijro nazorati bo‘limi (F.Mamatkulov) bilan birgalikda Kadastr agentligi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasining viloyat boshqarmaga borib, aniqlangan kamchiliklarni joyida tegishli mas’ullarga birma-bir ko‘rsatib, uni bartaraf etish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berilishini ta’minlasin.**

**5. Kadastr agentligi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasining viloyat boshqarmasi (M.Quvondiqov):**

**3 kun muddatda** “Edo.ijro.uz” elektron tizimi orqali yo‘naltirilgan qonunchilik hujjatlarining ijrosini ta’minlashda sustkashlikka yo‘l qo‘ygan rahbar va xodimlarga nisbatan ko‘rilgan choralar bo‘yicha viloyat hokimiga yozma axborot kiritilishini;

**1 hafta muddatda** ishchi guruh tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha belgilab olingan vazifalar to‘g‘risida viloyat hokimligiga axborot kiritilishini ta’minlasin.

6. Viloyat hokimligi ijro nazorati bo‘limi (**F.Mamatkulov**) 2025-yil 13-yanvarda Kadastr agentligi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasining viloyat boshqarmasini o‘rganish mobaynida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etilganligi bo‘yicha nazorat tartibida o‘rganish o‘tkazib, natijasi yuzasidan viloyat hokimiga axborot kiritsin.

7. Viloyat hokiminining birinchi o‘rnbosari (**F.Abilov**) kompleks rahbari sifatida Kadastr agentligi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasining viloyat boshqarmasida qonunchilik hujjatlarida berilgan topshiriqlar ijrosi va ijro intizomiga rioya etilishi ustidan ta’sirchan nazoratni kuchaytirsin.

### 3. Boshqa masalalar

(*Boboyev, Abilov, Xudayberdiyev, Tuxbayev, Shukurov, Qobilov, Xamrayev Rahmatullayev, Mirzayev, shahar va tuman hokimlari, Boboyev*)

#### 8. Viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari (**B.Rahmatullayev**):

“Edo.ijro.uz” elektron tizimi orqali yo‘naltirilgan qonunchilik hujjatlarining ijrosini ta’minlashda muntazam ravishda mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘yib kelayotgan Infratuzilmani rivojlantirish injiniring kompaniyasi direktori **Sh.Aliqulov**, Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi boshlig‘i **A.Abdullayev**, “Yagona buyurtmachi xizmati” DUK boshlig‘i **A.Elmurodov**, Kadastrlar palاتasi viloyat boshqarmasi boshlig‘i **M.Quvondiqovlarga** nisbatan qonun hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda “**hayfsan**” intizomiy jazo chorasi qo‘llash bo‘yicha yuqori turuvchi tashkilotlariga taqdimnomalar kiritilishini;

“Edo.ijro.uz” elektron tizimi orqali yo‘naltirilgan topshiriqlar ijrosini belgilangan muddatda va sifatlari tarzda ta’minlamagan viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i **T.Mahmudovni**, viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi boshlig‘i **B.Negmatovni**, Ekologiya, atrof-muhitni asrash va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi boshlig‘i **B.Jo‘rayevni**, Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i **B.Tugalovni**, “Zarafshon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i **F.Radjabovni**, Turizm boshqarmasi boshlig‘i **D.Narziqulovni**, Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig‘i **Sh.Sobirovni** va O‘rmon xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i **I.Yetkirovni** o‘rnatilgan tartibda rasman ogohlantirilishini ta’minlasin.

#### 9. Viloyat hokimligi kotibiyat mudirlari (**R.Mahqulov, N.Raxmonov, Sh.Quvvatov, O.Umirov, A.Toshnazarov, S.Ilmurodov, U.Obloqulov**):

bugungi kunga qadar ijrosi ta’minlanmagan 35 ta topshiriqlar ijrosini ta’minlash yuzasidan barcha zaruriy choralar ko‘rilishini;

muammoli yoki bajarilmaslik xavfi mavjud bo‘lgan Qonunchilik hujjatlarida berilgan topshiriqlarni ushbu hujjat bilan tanishib chiqilgan muddatdan boshlab tahlil

qilib, bajarilmaslik xavfi mavjud bo‘lgan topshiriqlar ijro muddatini uzaytirish (nazoratdan olish) bo‘yicha kechiktirib bo‘lmas choralar ko‘rilishini ta’minlasin.

Kelgusida, yuqoridagi kabi holatlar takrorlangan taqdirda ularga nisbatan qonunda o‘rnatilgan tartibda chora qo‘llanilishi haqida **ogohlantirilsin**.

**10.** Viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari (**B.Rahmatullayev**) viloyat hokimining sayyor qabullarida, Ishonch telefoni, telegram messenjeri, Xalq qabulxonalari hamda yozma ravishda qilingan murojaatlar ijrosini ta’minalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yganliklari sababli Jomboy (**Q.Sobirov**), Nurobod (**S.Berdiqulov**), Pastdarg‘om (**Sh.Raxmonov**) tumani hokimlaridan o‘rnatilgan tartibda tushuntirish xati olsin.

**11.** Tuman va shahar hokimlariga tuman va shahar markazlardagi mavjud piyoda yo‘laklari, ko‘chalardagi maishiy chiqindilar olib ketilish ishlari hamda ijtimoiy soha obyektlarining kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holatlari talab darajasida tashkillashtirilmaganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

**12.** Viloyat hokimi o‘rinbosarlari (**F.Abilov**, **A.Shukurov**, **X.To‘xtayev**, **R.Qobilov**, **Sh.Xudayberdiyev**), viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari (**B.Rahmatullayev**) joriy yilning 25-30-noyabr kunlari viloyatga yuborilgan Hisob palatasi va Adliya vazirligining ishchi guruhi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasini Samarqand viloyatida sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarni to‘laqonli ta’minalamagan boshqarma va tashkilot rahbarlaridan tushuntirish xatlari olib, ularga nisbatan qonun xujjalarda belgilangan tartibda chora ko‘rish to‘g‘risida yuqori turuvchi tashkilotiga taklif kiritsin.

**13. Viloyat hokimi o‘rinbosari (**A.Shukurov**):**

Samarqand shahri hokimi (**F.Umarov**) bilan birgalikda joriy yilda viloyat hokimiga biriktirilgan Samarqand shahridagi Rudakiy ko‘chasi yo‘laklarini nogironligi bo‘lgan shaxslarga moslashtirish ishlarini 2 oy muddatda yakunlanilishini;

har bir hududda 1 tadan ko‘cha va 2 tadan chorrahalarini nogironligi bo‘lgan shaxslarga moslashtirish loyihalarini 1 oy muddatda qayta ko‘rib chiqib, aniq va manzilli takliflar kiritilishini;

tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda 1 tadan ko‘cha va 2 tadan chorrahalarini nogironligi bo‘lgan shaxslarga moslashtirish uchun talab etiladigan mablag‘larni ajratish masalasini 2025-yil yanvar-fevral oylarida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari kun tartibiga o‘rnatilgan tartibda kiritilishini ta’minlasin.

**14.** Ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat hududiy boshqarmasi (**X.Nazarov**) Davlat rahbari tomonidan joriy yilda belgilab berilgan topshiriqlardan

kelib chiqib, ijtimoiy himoya sohasida 2025-yilda amalga oshiriladigan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha viloyat hokimning chora-tadbirlar dasturini 1 kun muddatda ishlab chiqib, viloyat hokimligiga taqdim qilsin.

**15. Tuman va shahar hokimlari:**

**3 kun muddatda** Davlat rahbari tomonidan ijtimoiy himoya sohasida 2025-yil uchun belgilab berilgan ustuvor vazifalar bo'yicha har bir hudud dasturini ishlab chiqilishini;

2025-yil uchun 36 nafar yetim bolalarga uy-joylar xarid qilish bo'yicha ko'p qavatli uylardan umumiy maydoni 25 kv.m.dan kam bo'lмаган xonadonlarga o'rnatilgan tartibda oldindan buyurtma berilishini ta'minlasin.

**16. Viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi (S.Zayniyev), Ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat hududiy boshqarmasi (X.Nazarov) bilan birgalikda nogironligi bo'lgan shaxslarni kasallik turlari bo'yicha tahlil qilib, kelgusi yilda qamrovi yuqori bo'lgan kasallik turlari oldini olish yuzasidan bir oy muddatda qo'shma chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin.**

**17. Viloyat Sport boshqarmasi (Sh.Ro'ziyev)** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-noyabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni sportga jalb etish orqali jismoniy reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 389-son qarori asosida nogironligi bo'lgan shaxslarning adaptiv sport turlari bilan muntazam shug'ullanishini yo'lga qo'yish bo'yicha sport inshootlarini moslashtirish va zarur shart-sharoit yaratilish maqsadida ikki hafta muddatda 2025-yilda amalga oshiriladigan ishlar "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqib, viloyat hokimi tasdig'iga kiritilishini ta'minlasin.

**18. Viloyat Maktabgacha va muktab ta'limi boshqarmasi (Sh.Eshonqulov), Ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat hududiy boshqarmasi (X.Nazarov) bilan birgalikda:**

talab asosida inklyuziv ta'limga muhtoj nogironligi bo'lgan bolalar uchun maktablarda o'rnatilgan tartibda inklyuziv sinflar tashkil etilishini;

2025-yil 1-sentabrga qadar viloyatdagi inklyuziv va korreksion sinflarni 2 baravarga oshirib, barcha maktablarda kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun qo'shimcha to'garaklar tashkil etilishini;

kelgusi yilda 1 736 nafar nogironligi bo'lgan bolalarni ta'lim va ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olish choralarini ko'rinishini ta'minlasin.

**19. Barcha shahar va tuman hokimlari hamda sektor rahbarlari o'zlarining hududlaridagi elektr, gaz, ichimlik suv ta'minotlaridan hamda oqova xizmatlaridan debitor qarzdorliklarni undirish rejalarini o'rnatilgan tartibda to'liq bajarilishini ta'minlasin.**

**20.** Viloyat Soliq boshqarmasi (**E.Tolliyev**), viloyat Statistika boshqarmasi (**Sh.Abdiyev**) kichik biznes subyektlari hisobotlarini bir xilligi, sifati va haqqoniyligini ta'minlash maqsadida statistika va soliq hisobotlari bo'yicha o'zaro solishtiruv ishlarini parallel ravishda olib borilishini ta'minlasin.

**21.** Viloyat hokimining o'rinnbosarlari (**F.Abilov, A.Shukurov, O.Xamrayev, Sh.Xudayberdiyev, R.Qobilov, X.To'xtayev**) viloyat Statistika boshqarmasi (**Sh.Abdiyev**), tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda hududlardagi mavjud qo'shimcha imkoniyatlarni tahlil qilib, joriy yil 20-dekabrga qadar mas'ul ijrochilarga yetkazilishini ta'minlasin.

**22.** Viloyat boshqarma va tashkilot rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari 2024-yil yakunlari bo'yicha sohalar kesimida asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini yuqori o'sish suratlarini ta'minlasin.

**23.** Viloyat hokimining o'rinnbosari (**X.Tuxtayev**), viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari (**B.Rahmatullaev**) oliy ta'lim muassasalari rektorlarini oliy ta'lim muassasalari faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lмаган yig'ilish va boshqa tadbirlarga jalb etmaslik hamda ta'lim sifatini ta'minlash va o'quv-tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish bilan bog'liq bo'lган masalalarni oliy ta'lim muassasasiga tashrif buyurgan holda hal etilish mexanizmi joriy qilish vazifasi yuklatilsin.

**24.** Mazkur yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Yig'ilish bayonini  
rasmiylashtirdi

**E.Jonibekov**